

AHMAD YUGNAKIYNING “HIBBATU-L-HAQOYIQ” ASARINING FALSAFIY XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15715637>

Ilmiy rahbar: A.A.Muhamedov
Metinova M.X
Alfraganus universiteti

Annotatsiya: ushbu maqolada Ahmad Yugnakiyning "Hibbatu-l-haqayiq" asaridagi falsafiy qarashlarning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri falsafiy asoslangan. Xususan, bugungi nuqtai nazardan, ilgari surilgan jamiyatning axloqiy va badiiy qarashlarining ilmiy dunyoqarashga ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada asardagi til va badiiy jarayonlarning o'ziga xos jihatlari uchun falsafiy asos berilgan. Bundan tashqari, bugungi kunda ushbu asarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari ilmiy jihatdan nisbatan tahlil qilindi. Bundan tashqari, Ahmad Yugnakiyning ushbu asarini boshqa didaktik asarlar bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, axloqiy qarashlar, xulq-atvor, ma'rifat, adolat, nasihat, fanning foydalari va uning zarari, tilni saqlash, dunyoning o'tkinchiligi, kamtarlik va takabburlik, saxiylik va takabburlik, ochko'zlik, saxiylik.

Abstract: In this article, the influence of Ahmad Yugnaki's philosophical views in the work "Hibbatu-l-haqayiq" on social processes is philosophically justified. In particular, the impact of the moral and artistic views of the society put forward in the work on the scientific worldview is analyzed from today's point of view. At the same time, the article provides a philosophical justification of the specific aspects of language and artistic processes in the work. Also, today, the socio-philosophical features of this work have been comparatively analyzed in a scientific manner. In addition, the comparative analysis of this work of Ahmad Yugnaki with other didactic works is based on linguistics.

Key words: education, moral views, manners, enlightenment, justice, admonitions, the benefit of science and its harm, preservation of the language, transience of the world, modesty and arrogance, generosity and arrogance, greed, generosity.

Аннотация: В данной статье философски обосновывается влияние философских взглядов Ахмада Югнаки в труде “Хиббату-л-хакайк” на социальные процессы. В частности, с сегодняшней точки зрения анализируется влияние моральных и художественных взглядов общества, выдвинутых в работе, на научное мировоззрение. В то же время в статье дается философское обоснование специфических аспектов языка и художественных процессов в произведении. Кроме того, сегодня социально-философские особенности этой работы были сравнительно проанализированы научным образом. Кроме того, сравнительный анализ

этой работы Ахмада Юганики с другими дидактическими работами основан на лингвистике.

Ключевые слова: образование, нравственные взгляды, манеры поведения, просвещение, справедливость, увещевания, польза науки и ее вред, сохранение языка, быстротечность мира, скромность и высокомерие, великодушные и самонадеянность, жадность, щедрость.

Adib Ahmad Yugnakiy Hibatu-l-haqoyiq asari bilan inson falsafiy va badiiy tafakkur tarziga katta ta'sir ko'rsatganligini aytish zarur. Uning Hibatul haqoyiq asari bugungi o'zbek falsafasi uchun katta xazina hisoblanadi. Asarning mazmun-mohiyati, ayniqsa, undagi tarbiyaviy va axloqiy qarashlar uni badiiy asar sifatida shakllantirganligi e'tirofga loyiqdir. Xususan, Turkiy xalqlar adabiyotida didaktikaning ilk namunalari Mahmud Koshg'ariyning Devoni lug'otit turk asarida uchrasa, o'zbek mumtoz adabiyotidagi dastlabki yirik namuna sifatida Yusuf Xos Hojibning Qutadg'u bilik, Ahmad Yassaviyning Devoni hikmat, Ahmad Yugnakiyning "Hibbatu-l-haqayiq" asarlarini alohida e'tirof etish mumkin. Ushbu asarlarda ta'lim-tarbiyaga oid odob-axloq, ma'rifat, adolat, insoniylik, mehr-oqibat kabi bir qator falsafiy va diniy qarashlar pand-nasihatlari bayon etilgan.

Asarning ikkinchi bo'limida tilni tiyish va kishi axloq-odobi haqida so'z boradi. Adab muallimi bo'lmish Yugnakiy insonlarni rostgo'ylik, til bilan insonlar dilini jarohatlamaslikka, dilozor bo'lmaslikka chaqiradi. Shu o'rinda xalqimizda mashhur bo'lgan. Tig' yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi maqolini keltiradi. Darhaqiqat, odobaxloqning boshi til. Shu bilan birga adib insonlarni oz va soz so'zlashga chaqiradi. Quyidagi bayt fikrmizning yorqin namunasi: Barchaga teng aytdik, nasihat budir, Tilini tiygan kishi, oqil ham shudir.

Tilini tiyib, so'zni oz qilgan kishi,

O'zi ham saqlanur, avj olur ishi⁴⁴¹

Adabiyotlar tahlilicha, Ahmad Yugnakiyning ushbu asari islom turkiy adabiyotida ikkinchi asar bo'lgani uchun til tarixi va adabiyoti jihatidan katta ahamiyatga ega. Xususan, Qutadg'u bilig qo'shma va masnaviy tarzida yozilgan bo'lsa-da, "Hibbatu-l-haqayiq" to'rtlik shaklida yozilgan. Jumladan, adib tomonidan to'g'ri so'zni asalga, yolg'on so'zni sarimsoqqa o'xshatib tasvirlashi majozning bir katta namunasi hisoblanadi. Shuningdek, insonlardagi yolg'on so'z kasallik, tashvish bo'lsa, to'g'ri so'z shifo bo'lib dardlardan forig' etishini qayd etgan.

Ahmad Yugnakiyning o'zning Hibbatu-l-haqayiq asarida saxovat to'g'risidagi qarashlarini ham ilgari surganligini aytish zarur:

Bilimning qadriga etadi sahiy, Bilimga bor molin sotadi sahiy.

Dunyoda yaxshilik otin qoldirib, Yana ming yil umr etadi sahiy⁹.

Darhaqiqat, Ahmad Yugnakiyning ushbu asari pandnoma ya'ni nasihatlar usulida yozilgan badiiy jihatdan etuk asar hisoblanadi. Asar o'zidan oldin

⁴⁴¹ Sariyev Sh. Adabiyot fanidan yaxlit o'quv-didaktik majmua. – Toshkent: Sharq, – Toshkent: 2014. ⁹ A.Yo'gnakiy. (1971) Hibat ul-haqoyiq. – Toshkent: G'ofur G'ulom.

yaratilgan pand-nasihat ruknidagi asarlarga hamohang tarzda yaratilib, o'zbek mumtoz adabiyoti durdonalaridan biriga aylandi. Ahmad Yugnakiy o'zini shoir emas, adab muallimi deb ataydi. Asar xotimasida adibning o'zi asarni yozishdan maqsadini quyidagicha bayon etadi: Xaloyiqqa ibrat, ta'lim berguvchi, Kitob bitdim, odobga chaqiruvchi.

Tenglasa arzirli so'zga tenglasin, O'z qadrini misli durday terguvchi⁴⁴²

Ahmad Yugnakiyning bu kitobni yozishdan maqsadi insonlarni odob-axloqqa chaqirish, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Allohga hamd, payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning madhi kabi qarashlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, asarda uning tomonidan quyidagi diniy g'oya mavjud, ya'ni: choriyorlarga ham salom yo'llayman, Tirikman, ularning yo'lin qo'llayman⁴⁴³.

- deya choriyorlarni ulug'laganligini keltirish mumkin.

Darhaqiqat, Ahmad Yugnakiy o'z asarida ilm va ma'rifat g'oyalarini falsafiy va badiiy jihatdan asoslab bergan. Xususan, ilm saodatga etaklashini, baxtning kaliti ilmga ekanligini bayon qiladi. Shunga binoan, har bir davrda ilm sohiblari va ularga qarama-qarshi tarafda johillar ham bo'lishgan. Bundan tashqari asarda bilimli va bilimsiz insonlarni bir-biri bilan qiyosiy solishtirib, bilimli tillo dinorga (pul)ga qiyoslansa bilimsiz, johil odam xalq orasida doim xor-u zor bo'lishi ta'kidlanadi. Qolaversa, inson azosidan biri suyak orqali inson ko'rkini aqlga qiyoslab tasvirlab beradi. Jumladan, suyakning ko'rki ilik bo'lganidek, insonning ko'rki uning aqli, ilmi ekanligi e'tirof etilgan. Ilmli fozillar bu dunyodan ko'z yumishsa-da ularning nomi barhayot bo'lishi, johillar tirik bo'lsa-da ularning el orasida hurmati va o'rni bo'lmasligi tasvirlanadi.

Bir bilimli bilimsizning mingiga teng,
Ming bilimsiz bilimlga bo'lolmas eng⁴⁴⁴.

deya ajoyib ta'rif beradi. Oqil va nodon insonni qiyoslar ekan, oqil inson doim o'ylab, fikrlab o'rnida gapirishini nodon bo'lsa gapning mavridini bilmay noo'rin so'zlashi va natijada doim pand eyishini aytadi. Nodonning bunday har qadamda qoqilishiga sabab uning bilimsizligidandir, deb asoslab berilgan.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, O'zbekistonda asardan parchalar Fitrat, Oybek, P.Shamsiyev, S.Mutallibovlar tomonidan o'zbek adabiyoti namunalaridan tuzilgan majmualarda e'lon qilingan. Shuningdek, E.Bertels, Fitrat, Fuod Ko'prulu, T.Takin, E.Rustamov, N.Mallayev, A.Qayumov, A.Hayitmetov, A.Rustamov, M.Imomnazarov, B.To'xliyev, N.Rahmonov, I.Haqqulov, G.Xo'janova va boshqalar Hibbatu-l-haqaiyiq haqida u yoki bu darajada tadqiqot ishlarini olib borganlar. Asarning ikkinchi bo'limida tilni tiyish va kishi axloq-odobi haqida so'z boradi. Adab muallimi bo'lmish Yugnakiy insonlarni rostgo'ylik, til bilan insonlar dilini jarohatlamaslikka, dilozor bo'lmaslikka chaqiradi. Shu o'rinda xalqimizda

⁴⁴² R.Rasulova., Y.Jovliyeva. (2021) Ibn Sinoning "Hayy bin yaqzon" asaridagi falsafiy qarashlar va majoziy timsollar tavsifi. A.Qodiriy nomidagi JDPI Xalqaro ilmiy-uslubiy anjuman.

⁴⁴³ K. Махмудов. (1971) Ҳибат ул-хақойиқ. – Тошкент.

⁴⁴⁴ Sh.Sariyev. Adabiyot fanidan yahlit o'quv-didaktik majmua. - Toshkent: Sharq, 2014.

mashhur bo'lgan Tig' yarasi bitadi, til yarasi bitmaydill maqolini keltiradi. Darhaqiqat, odob-axloqning boshi til. Shu bilan birga adib insonlarni oz va soz so'zlashga chaqiradi. Quyidagi bayt fikrmizning yorqin namunasi:

Barchaga teng aytdik, nasihat budir, Tilini tiygan kishi, oqil ham shudir, Tilini tiyib, so'zni oz qilgan kishi, O'zi ham saqlanur, avj olur ishi⁴⁴⁵.

Uning Hibbatu-l-haqaiyiq (Haqiqatlar tuhfasil) asari bizgacha yetib kelgan. Ahmad Yugnakiyning ushbu asari nusxalaridan biriga temuriy amaldorlardan Arslonxoja Tarxon tomonidan ilova qilingan 10 baytli masnaviyda Yugnakiy haqida ba'zi ma'lumotlar mavjud. Shoir Hibbatu-l-haqaiyiqni tugatib, uni hukmdori Dod Sipohsolorbekka taqdim etadi. Mashhur sharqshunos olim E.Bertels bu asar qadimiy o'zbek adabiy tilidan mumtoz o'zbek adabiy tiliga o'tishda bir ko'pri bo'lganini aytadi. Asar tilida qadimiy turkiy so'zlardan ko'ra, arab va fors so'zlarining ko'p qo'llangani shundan dalolat beradi. Yugnakiy bu asari bilan o'zbek adabiy tili va adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan.

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, Ahmad Yugnakiyning Hibbatu-l-haqaiyiq asarida yoshlar o'rganishi, o'rnak olishi va falsafiy tafakkurini shakllantirishi lozim. Shuningdek, ushbu asar orqali ilmning foydasi va jaholatning zarari, tilni asrash, dunyoning yomonligi, hayo va kibr, saxovat va kibr, ta'magirlik, saxovat, muruvvat. va boshqa yaxshiliklar o'zimizda jamlangan shaklda shakllantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sariyev Sh. Adabiyot fanidan yaxlit o'quv-didaktik majmua. – Toshkent: Sharq, – Toshkent: 2014.
2. A.Yugnakiy. "Hibbatu-l-haqaiyiq". – Toshkent: G'ofur G'ulom, 1971.
3. R.Rasulova., Y.Jovliyeva. Ibn Sinoning —Hayy bin yaqzon asaridagi falsafiy qarashlar va majoziy timsollar tavsifi. A.Qodiriy nomidagi JDPI Xalqaro ilmiy-uslubiy anjuman. 2021.
4. K. Махмудов. (1971) Ҳибат ул-хақойиқ. – Тошкент.
5. Sh.Sariyev. Adabiyot fanidan yahlit o'quv-didaktik majmua. – Toshkent: Sharq, 2014.
6. Сәйф Сараи. Гөлестан. Лирика. Дастан. - Казан: Татар, 1999.

⁴⁴⁵ Сәйф Сараи. Гөлестан. Лирика. Дастан. - Казан: Татар, 1999.